

## **BO`YOQCHILIK HAMDA KULOLCHILIK ASOSIDA SHAKLLANGAN O`ZBEK XALQ MAQOLLARINING TAHLILI**

*Bobojonova Dilnoza Oxunjonovna*

*Osiyo xalqaro universiteti*

*“Pedagogika psixologiya” kafedrasи o’qituvchisi*

*E-mail: [bobojonovadilnozaoxunjonovna@oxu.uz](mailto:bobojonovadilnozaoxunjonovna@oxu.uz)*

**Annotatsiya:** “Milliy mafkura, avvalambor, o’zligimizni, muqaddas an’analarimizni anglash tuyg’ularini, xalqimizning ko’p asrlar davomida shakllangan ezgu orzularini, jamiyatimiz oldiga qo’ylgan oliy maqsad va vazifalarni qamrab olishi shart”<sup>1</sup>. Chunki mafkura o’tmisht va kelajak o’rtasidagi ko’prik ekanligini unutmasligimiz lozim. Bu borada bizga xalq og’zaki ijodi durdonalari muhim manba bo’lib xizmat qiladi.

**Kalit so’zlar:** maqol, bo’z, bo’zchilik, to’quvchilik, mehnat, nunar, kasb, bo’yoqchilik, kulol, kulolchilik

**Bo`yoqchi** – 1. Gazlama, ip va shu kabilarni bo`yovchi usta, mutaxassis, rangvorchi.

2. Sirkor usta, uy sirlovchi, bo`yovchi.

1. Bo`yoqchining bo`yoqchiligi qo’lidan ayon.

2. Bo`yoqchini bo`yoqchi desang, soqoligacha bo`yaydi.

3. Bo`yoqchining nili buzildi.

**Bo`yoqchining bo`yoqchiligi qo’lidan ayon.** Qilayotgan harakatiga qarab kasb egasiga baho bersa bo`ladi. Zargarning ishi tayyorlagan buyumidan, notiqning notiqligi so’zlagan nutqidan bilinadi. Insonning kim ekanligi boshlagan ishidan, so’zlagan nutqidan bilinadi. Shakl hamma vaqt aldamchi bo`ladi.

**Kulol** – 1. Loydan turli sopol buyumlar tayyorlaydigan hunarmand.

2. Kasb oti.

1. Kulol mo’ndida suv ichar.

2. Kulolning kulfatini ko’r: tutgani sopol tovoq.

3. Sinmasni kulol yaratmas.

4. Singan – kulolning ko’zasi, to’kilgan - birovning bo’zasi.

5. Sinmasni kulol yasamas,

O’lmasni xudo yaratmas.

<sup>1</sup> 2 Каримов И.А. Жамиятимиз мафкураси халқни-халқ, миллатни-миллат қилишга хизмат этин. “Тафаккур” журнали, 1998, 2-сон, 8-бет

6. Yomon kulol qo`lidan yaxshi ko`za chiqmaydi.

7. Dehqon yomg`ir tilaydi,

Kulol ayoz tilaydi.

8. Kulolning ichida qasosi yo`q.

9. Sinmasni kulol yaratmas.

10. Singan kulolning ko`zasi,

To`kilgan bo`zagarning bo`zasi.

Kulolchilik – hunarmandchilikning loydan turli buyumlar (sopol idish, qurilish materiallari va boshqalar) tayyorlaydigan turi. Inson kulolchilik bilan neolit davridan shug`ullangan. Maxsus loydan buyumlar qo`lda yasalgan, quritib olovda qizdirilgan. Kulolchilik bilan dastlab ayollar shug`ullangan, kulolchilik charxining paydo bo`lishi bilan erkaklar ham bu ishga jalg qilingan. Kulolchilikning sodda usullari Osiyoning tog`li hududlarida yashovchi xalqlarda hozir ham mavjud. Sirlash usullari kashf etilgach, kulolchilik buyumlarining badiiy qimmati oshdi. Arxeologik materiallar kulolchilik mahsulotlarining asrlar davomida takomillashib borganini ko`rsatadi.

**Singan – kulolning ko`zasi, to`kilgan - birovning bo`zasi** maqolida singan bo`lsa kulolning ko`zasi sinibdi, to`kilgan bo`lsa bo`zagarning bo`zasi to`kilibdi. Shunga ham xafa bo`lib o`tirish yaramaydi. Bo`lar-bo`lmasga qayg`urib, iztirob chekib yurma, asabingni buzma, o`z sihatningi o`yla, deyilmqchi.

**Sinmasni kulol yasamas, o`lmasni xudo yaratmas** maqoli orqali g`am-g`ussaga botib, kuyib-yonishning foydasi yo`q. Bunday qilgan bilan baribir hech narsa o`zgarmaydi. Kishi o`z sihatini ham o`ylashi kerak, deyilmqchi.

**Yomon kulol qo`lidan yaxshi ko`za chiqmaydi** maqoli majoziy ma`noda ishlatiladi. Bola tarbiyasi haqida gap ketganda tarbiyachilarning, ya`ni ota-onalarning o`zlarini axloqli, odobli, ibratli bo`lishlari lozimligi uqtiriladi. Ota-onal to`g`ri, odobli bo`lsa, ular tarbiya qilgan farzandlar ham kelajakda shunday bo`lib voyaga yetadilar. Bolalarning fe`l-atvori, tashqi ko`rinishi, odatda, ota-onasining o`xshash yoki o`shanga yaqinroq bo`ladi. Bolaning ozoda yoki irkit, yirtiq-yamoq kiyinib yurishidan ham ota-onasining qandayligini bilib olsa bo`ladi. Ma`naviy saviyasi yetuk, dunyoqarashi porlagan salohiyatlari insonlarning farzandlari jamiyatda o`z o`rnini topa oladi. Aqliy jihatdan nosog`lom, yurish-turishi, dunyoqarashida nuqson bo`lgan, to`g`ri yo`lda yurmagan insonlarning farzandlaridan biror yaxshilik kutish o`ta qiyindir.

**Dehqon yomg`ir tilaydi, kulol ayoz tilaydi.** Ushbu maqolning kelib chiqishi quyidagi rivoyat bilan bog`liq: Qadimda bir odamning ikki qizi bo`lgan ekan. Ularning bo`yi yetgach birini dehqonga uzatibdi, ikkinchisini kulolga uzatibdi. To`ydan so`ng biroz vaqt o`tgach, qizlar otalarining holidan xabar olgani kelishibdi. “Xo`sh qizlarim, yaxshimisizlar! – debdi otasi va dehqonga uzatilgan qizidan so`rabdi, kuyoving ishlari qalay?”. “Kuyovingiz aytadilarki, bu yil yog`ingarchilik ko`p bo`lsa, ekin-tikinimiz yaxshi unib o`sadi, hosil mo`l bo`ladi. Ana shundan keyin yaxshi uy qurib olamiz. Ikkinci qizidan so`rabdi: “Xo`sh seniki-chi, qizim?” deb kulolga uzatgan qiziga qarabdi. “Kuyovingiz aytadilarki, bu yil yog`ingarchilik bo`lmay, havo ochiq kelib, ayoz bo`lsa, yasagan idishlarimiz yaxshi quriydi. Ana undan keyin bir chekkada

xumdonda pishirib, sotaveramiz. Tushgan puliga bir yaxshi uy qurib olamiz”, – deb javob beribdi. Ushbu maqol orqali har kim o`ziga qulay bo`lgan tomonni ko`zlaydi, deyilmoxchi.

**Adabiyotlar:**

1. Oxunjonovna, B. D. (2023). MAHMUD QOSHG'ARIYNING “DEVONU LUGOTIT TURK” DAGI SHAKLINI HAM, MAZMUNINI HAM SAQLAGAN IDIOMALAR TAHLILI.
2. Oxunjonovna, B. D. (2024). BOZHCHILIK ASOSIDA SHAKLLANGAN O ‘ZBEK XALQ MAQOLLARINING TAHLILI. *PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(1), 122-125.
3. Oxunjonovna, B. D. (2024). DAVLAT TILIDA ELEKTRON ISH YURITISH: IMKONIYATLAR VA MUAMMOLAR. *Methods of applying innovative and digital technologies in the educational system*, 1(2), 235-240.
4. Oxunjonovna, B. D. (2024). DAVLAT TILIDA ISH YURITISHNING HUQUQIY ASOSLARI VA AMALIY AHAMIYATI. *Methods of applying innovative and digital technologies in the educational system*, 1(2), 229-234.
5. Oxunjonovna, B. D. (2024). HUJJATLAR BILAN ISHLASHDA O ‘ZBEK TILI ME’YORLARINI QO ‘LLASHNING DOLZARBLIGI. *Methods of applying innovative and digital technologies in the educational system*, 1(2), 247-252.
6. Oxunjonovna, B. D. (2024). HUJJATLARNI DAVLAT TILIDA YOZISHUDA TERMINOLOGIYA VA UNING STANDARTLASHUVI. *Problems and solutions at the stage of innovative development of science, education and technology*, 1(2), 1-7.
7. Oxunjonovna, B. D. (2024). DAVLAT TILIDA ISH YURITISHNING XALQARO TAJRIBASI VA O ‘ZBEKISTONGA MOSLASHUVI. *Methods of applying innovative and digital technologies in the educational system*, 1(2), 241-246
8. O ‘ZBEK TILIDA ISH YURITISHNING YANGI TEKNOLOGIK IMKONIYATLARI BD Oxunjonovna - Problems and solutions at the stage of innovative ..., 2024
9. Oxunjonovna, B. D. (2024). O ‘ZBEK TILINING RASMIY ISH YURITISH TILIGA AYLANISH TARIXI. *Problems and solutions at the stage of innovative development of science, education and technology*, 1(2), 32-37.
10. Bobojonova, D. (2023). ANALYSIS OF IDIOMS THAT PRESERVE BOTH FORM AND CONTENT IN MAHMUD KASHGARI'S " DEVONU LUGOTIT TURK". Modern Science and Research, 2(9), 64-67.
11. Bobojonova, D. (2023). THE IMPORTANCE OF UZBEK FOLK PROVERBS. Modern Science and Research, 2(10), 670-675.
12. Bobojonova, D. (2023). MAHMOUD QOSHGARI'S" DEVONU LEXICOTIT TURK" AND ITS PLACE IN LINGUISTICS. Modern Science and Research, 2(10), 538-540.
13. Oxunjonovna, B. D. (2022). O’ZBEK TILSHUNOSLIGIDA LISSONIY INTERFERENSIYANING KO'RINISHLARI. PEDAGOGS jurnali, 14(1), 22-25.
14. Okhunjonovna, B. D. (2023). A Proverb is a Product of Folk Wisdom. American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769), 1(9), 333-338.
15. Bobojonova, D. (2023). MAHMUD KASHGARI'S WORK" DEVONU LUG'OTIT TURK" IS AN IMPORTANT SCIENTIFIC HERITAGE. *Modern Science and Research*, 2(12), 742-748.

*Index: google scholar, research gate, research bib, zenodo, open aire.*

[https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as\\_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG](https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG)

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

16. Bobojonova, D. (2024). TYPES OF OCCUPATIONS RELATED TO THE LIFE OF THE UZBEK PEOPLE (within the profession of blacksmithing). Modern Science and Research, 3(2), 739-746.
17. Bobojonova, D. (2023). THE ROLE OF MAHMUD KASHGARI'S WORK "DEVONU LUG'OTIT TURK" IN THE DEVELOPMENT OF THE UZBEK LANGUAGE. Modern Science and Research, 2(4), 568-5672.
18. khunjonovna, B. D. (2024). Comparative Analysis of Proverbs in " Devonu LugOtit Turk" and Currently Available. Journal of Higher Education and Academic Advancement, 1(2), 194-198.
19. Bobojonova, D. (2024). MANIFESTATION OF LEXEMES RELATED TO THE PROFESSION OF BLACKSMITHING IN FOLK PROVERBS. Modern Science and Research, 3(1), 687-693.
20. Okhunjonovna, B. D. (2024). Analysis of Folk Proverbs Based on Medicine. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 4(3), 125-131.